



“CHO‘LPONNI ANGLASH” TADQIQOTIDA JAMIYAT HAYOTIGA
BERILGAN CHIZGILAR

Karimova Ro‘za Abdusamad qizi

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti 2-bosqich
talabasi*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada Ozod Sharofiddinovning munaqqid va publitsist sifatida
jadid adabiyoti namoyondasi Cho‘lpon shaxsiga va ijodiga doir fikrlari hamda mustabid tizim va
uning qurbonlari haqidagi mulohazalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: milliy adabiyot, adabiy jarayon, munaqqid, ijod, fidoyi ijodkor.

Ozod Sharafiddinov Cho'lponni anglash asarida Cho'lpon shaxsiga va ijodiga doir ma'lumotlar berish bilan birga o'sha davr mustabid tizimi va uning qurbonlari haqida ham batafsil yoritib bergan. Munaqqidning yozganlaridan ko'p narsalarni anglab yetar ekansiz, ba'zi insonlar nahotki shunchalik zulmkor bo'lsa deyishdan nariga o'ta olmaysiz. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponga ta'na toshlarining otilishi 1925-27-yillardan boshlangan ekan, shunga qaramasdan u o'zini ijodkorlik ritmini bir soniya ham yo'qotmagan otashin shoirlik qalbi ila qanchadan qancha go'zal she'rlar yozib, badiiyluk qonuniyatlarini qayta tuzib chiqqanday milliy adabiyotimizning zamonaviy yo'llarini ochib berdi hamda adabiy-tanqidiy maqolalari bilan davr manzarasini aks ettirgan.

Go'zal Turkiston senga ne bo'ldi?

Sahar vaqtida gullaring so'ldi,

Chamanlar barbod qushlar ham faryod

Hammasi mahzun bo'lmas mi dilshod?

Bilmam nechun qushlar uchmas bag'chalarinda?

She'ring tub zamirida ko'hna Turkistonning zabun holi sezilib turara ekan, har satrida Cho'lpon nigohi yurakka qadalgandek jizzillab ketadi. Uni har kim ham his qila olmasada, she'rlarining badiiy tasiri bilan xalqning yuragini mo'ljalga olgan shoir ularni ma'naviy uyg'otishga harakat qilgan. Fikrlashga majbur qiladigan mulohazali maqolalari adabiy tanqidchilikning pilla poyasi hisoblangan. Uning "Muhtaram yozg'uvchilarimizga", "Adabiyot nadur?" deb nomlangan maqolalarida adabiyotimizning yangicha ko'rinishini aks ettirish g'arb va sharq adabiyotlaridan qaysidir jihatlarini o'rganishimiz kabi bir qancha adabiy jarayonning rivojlanish yo'llarini yechimini topish borasida mushohada yuritgan.

Cho'lponning qon qoniga singib ketgan adabiyot uni chinakam fidoyi ijodkor ekanini ko'rsatdi. Adabiyotining har sohasida ijod qilishi uning sermahsul ijodkor ekaniligiga ishoradir. "Cho'lponni anglash" tadqiqoti 1925-yildan to 1990-yillarga qadar bo'lgan voqealarni o'z ichiga olar ekan munaqqidning yozganlaridan



quyidagilarni anglashingiz muqarar. Cho'lpon ijod olamida endi qanot qoqib parvozig shaylangan vaqtida uning qanotini sindirish uchun nimalarni o'ylab topmaganini va ushbu davr mobaynida shoir sha'niga aytilmagan bo'hton qolmaganini, uning nomini qoralash bilan birga yozgan har bir asarlarini muhokama qilib uni tahqirlash bobida kim o'zar musobaqasi avj olib borganini va yuzlab maqolalarda kitoblarda ma'ruzalarda unga "mafkurasi buzuq", "millatchi", "xalq dushmani" degan bema'ni tamg'alar bilan yuziga va ijodiga dog' qoldirganini yozgan. Adabiy jarayon to'lqinida yashagan Cho'lpon o'z etiqodida mustahkam turdi, jon kuyar ijodkor millati uchun qo'lidan kelganini qildi uning asarlaridagi har bir satrida ezilgan xalqiga nisbatan ma'rifat ziyosi ila istiqloлга chaqiriq sezilib turardi. Ammo uni teskarisiga talqin qilgan ruslar va ularga qo'shilgan o'zimizning millatdoshlarimiz uni "xalq dushmani" deya jar solganini o'qisangiz yuragingiz og'rishi aniq. Chunki munaqqid O. Sharafiddinov o'sha davr hayotini ipidan ignasigacha o'rganib, zamon zarbasi qanchalar og'riqli kechganini tushinib yetish bilan birga o'sha paytdagi azob-uqubatni his qilgan va uni o'quvchi kitobxonga ham yetkazishda gard yuqturmasdan, boricha yozib qoldirgan: "Cho'lpon otilgandan keyin ham hukmron mafkura muhoblari uning nomidan o'tdan qo'rqqandek qo'rqishda davom etishdi. Shuning uchun ular Cho'lponning nomini adabiyot tarixidan butunlay yo'q qilib yuborish harakatiga tushdilar. Kutubxonalarda uning kitoblari hibsga olindi — ularni temir eshikli maxsus xonalarda saqlashar, ulardan foydalanish man qilingan edi. Jurnallarda bir zamonlar chop etilgan Cho'lpon suvratlariga qora siyoh chaplashdi, kitoblar va maqolalarda uning ismlari o'chirildi. Uni faqat "vatan xoini, millatchi, josus, xalq dushmani" debgina tilga olish mumkin edi"¹. To'g'ri uning nomini yomonga ham chiqarishdi, hattoki kitoblarini o'qishni man qilib qo'ydi, gazeta va jurnallarda uning rasmi chiqsa yuziga siyoh surkadi ham, ammo tarix sarvaraqlaridan o'chira oldimi? Millat ruxidanchi? Adabiyot yuragiga chuqur o'rnashgn avlodlari qalbidan yulib chiqara oldimi? Yo'q albatta, haqiqat egiladi bukiladi ammo sinmaydi. Oltin zanglamagani kabi asl ijodkorlar ham hech qachon unutilib ketmaydi. Cho'lpon umrining ba'zi yillarini qamoqda o'tkazdi, ammo u haqiqat kuychisi va erk farzandi edi. Uning yuragi kishanlanmagan istaganicha ijod qila olmog'i va sonsiz orzular qilshga haqi bor edi. Muhimi xalqni erkinlikka olib chiqish borasidagi g'oyalari bir soniya ham so'nmedi. Buyuklar yodini qayta tiklash ular nomini oqlash zamonlar o'zgargan sayin o'z ko'rinishini bera boshaladi. O. Sharafiddinov tabiri bilan aytganda xalqimizning yelkasiga quyosh tega boshladi endi millatimiz erkin hayot nima ekanini va chinakam san'at va adabiyot qanday bo'lishini yurak yuragidan his qiladi. Qora

¹ Sharafiddinov. O. Ijodni anglaash baxti."Sharq" nashryoti. 2004.36.b



kunlar zulmatida yashagan ajdodlarimizni aslo unutmasligimiz kerak, bugungi yorug' kunlar uchun ular jonlarini fido qilishgan. Aynan shu narsani nazarda tutib xotirani abadiylashtirish uchun ham O. Sharafiddinov o'tmish sadolariga quloq tutib, haqiqatni axtarib, topib uni XXI asr farzandlariga yetkazisdek masulyatli ishini o'z bo'yniga oladi. Mustaqillika erishganimizdan so'ng ham qatog'on qurbonlari haqida yozish anchayin xaflidek tuyulgan bir paytda munaqqid tashabbus ko'rsatib, ilg'or qadamlarni tashlaydi. Ayni damda guvohi bo'lib turganingizdek hozir va bundan keyin ham O.Sharafiddinovning ushbu "Cho'lponni anglash" asari qanchadan qancha yangi avlodga haqiqatni baralla aytib turuvchi radioday jaranglab turadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Cho'lpon kabi jadidlar faoliyatiga alohida to'xtalib: "...Bu ulug' zotlarning maqsadi – jaholat va qoloqlik girdobida qolib ketayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg'or kasb-hunarlar bilan qurollantirib umumbashariy rivojlanish yo'liga olib chiqishdan iborat edi. Jadidlar tomonidan kashf etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini, chet ellarga o'qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g'aflat uyqusidan uyg'otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi" , deya ta'kidlagan edi. Haqiqatan ham Cho'lpon kabi buyuk tarixiy shaxslarning yurtimizdagi bugungi baxtiyor kunlar uchun hissasi beqiyosdir"² Cho'lpon yashagan murakkab davrdan bugungi kungacha erishilgan mustaqillik, milliy ozodlik, milliy mafkura kabi tushunchalarning asosi, aynan u kabi yetuk shaxslarning sa'y-harakatlari, mardonavor kurashlariga borib taqaladi. Cho'lpon kabi jasoratli jadidlarning asosiy maqsadi xalq ozodligi, ma'rifat tamoyillarining ustuvorligini ta'minlash, shakllanayotgan avlodlarni ilm yo'liga safarbar qilish va bu orqali millatning g'ururini yuksaltirish, kelajak poydevorini mustahkam qurish yo'lida kurashishdan iborat bo'lgan. Shuningdek ajdodlarimizning milliy mafkurasi zaminida toblangan ma'naviy g'oyalar quyosh nuriday porlab turganini sezar ekansiz, xalqni ozodlikka chorlovchi chaqiriqlariga quloq tutishdek tuyg'u qamrab oladi. Ular ijodini o'rganish va hali hamon xalqimizning ayrim qatlami tarix aslida qanday bo'lganini tushinib yetmagan narsalarni anglatish bilan barobardir. Aslida Cho'lponni qanday anglashimiz kerakligini O. Sharafiddinov qisqacha ammo chuqur ma'noga ega so'zlar bilan quyidagicha ifodalangan. "Cho'lponni anglash – so'z san'atining botiniy qonuniyatlarini teran anglash, ularning shoir ijodida qanday zohir topishini anglashdir. Cho'lponni anglash – uning umumbashariy g'oyalarini, uning yuksak insoniy tuyg'ularini yurakka singdirib

² Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda // "Yangi O'zbekiston" gazetasi. – Toshkent: 2021-yil 17-avgust. – №165 (421). – B. 1.



olishdir. Cho‘lponni anglash-Vatanni, ko‘hna Turkistonimizni Cho‘lpon ko‘zi bilan ko‘rib, Cho‘lpon yuragi bilan seva bilmog‘dir»³.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. – Toshkent: 2021-yil 17-avgust. – №165 (421). – B.
2. <https://uzsmart.ru/kutubxona/muallif/418-normat-yo%CA%BBldoshev.html>
3. “Millatni uyg‘otgan adib” «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasining 2004 yil 44-sonidan.
4. Sharafiddinov. O. Ijodni anglaash baxti.”Sharq” nashryoti. 2004.54.b.



³ Sharafiddinov. O. Ijodni anglaash baxti.”Sharq” nashryoti. 2004.24.b